

PERIODONT TO‘QIMALARINING ANATOMIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Tibbiyot fanlar fakulteti

Stomatologiya yo‘nalishi:

Sultanova Mushtariybegim Kadirjan qizi

Email: sultanovamushtariy06@gmail.com

Tel: +998 77 046 44 14

Annotatsiya: Mazkur maqolada periodont to‘qimalarining anatomik tuzilishi va ularning funksional ahamiyati tibbiy-biologik nuqtai nazardan keng yoritilgan. Periodontium to‘qimalarining har bir komponenti – milk, sement, periodont ligamenti va alveolyar suyak tizimi – o‘zaro murakkab biologik aloqada harakatlanishi, ularning og‘iz bo‘shlig‘i salomatligi uchun tutgan o‘rni va himoya funktsiyasi tahlil qilingan. Shuningdek, bu to‘qimalarning sog‘lom holati tishlarni uzoq muddat saqlab qolishda qanday rol o‘ynashi va ularning buzilishi oqibatida yuzaga keladigan kasalliliklar haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: periodontium, milk, sement, alveolyar suyak, periodont ligamenti, og‘iz gigiyenasi, tish salomatligi.

Annotation: The anatomical structure of periodontents and their functional significance is widely covered in a medical and biological point of view. Each component of the periodontium tissue is the ACC, cement, the periodontate ligament and the Alveolar Bone System - analyzed the role and protective function of their oral health. It is also provided how the healthy state of the tissue play for long-term conservation of teeth and the diseases caused by their demolutions.


Keywords: periodontium, gumk, cement, alveys, periodontal league, oral hygiene, dental health.

Аннотация: Анатомическая структура периодонтов и их функциональная значимость широко распространены с медицинской и биологической точкой зрения. Каждое компонент ткани периодонта - это АСС, цемент, пародонтовая связка и альвеолярная костная система - проанализировали роль и защитную функцию здоровья полости рта. Также предоставляется то, как здоровое состояние ткани играет для долгосрочного сохранения зубов и заболеваний, вызванных их разрушением.

Ключевые слова: периодонт, Гумк, Цемент, Альвеи, пародонта, лига, гигиена полости рта, стоматологическое здоровье.

Kirish


Periodont to‘qimalari – bu tishlarni alveolyar suyak ichida ushlab turuvchi va uni atrofdagi to‘qimalar bilan bog‘lab turuvchi murakkab biologik sistemadir. Bu tuzilmaga milk (gingiva), sement, periodont ligamenti va alveolyar suyak kiradi. Tishlarning sog‘lom faoliyati, ularning joyida mustahkam ushlanib turishi, chaynash bosimi ta’siriga bardoshlilik darajasi aynan ushbu to‘qimalar holatiga bog‘liqdir. So‘nggi yillarda periodont tizimi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, bu to‘qimalarning nafaqat mexanik, balki biologik va immunologik jihatdan ham o‘ta muhimligini ko‘rsatmoqda. Periodontum tarkibidagi har bir komponent o‘ziga xos vazifani bajaradi. Ular orasidagi uzviylik esa tishlarning umumiyligi salomatligini belgilovchi asosiy omildir. Periodont to‘qimalari shikastlanganda yoki yallig‘langanda, bu jarayon butun og‘iz bo‘shlig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, tishlarning silkinishi, og‘riq, hatto yo‘qotilishiga olib keladi. Shu bois ushbu to‘qimalarning tuzilishi, funksiyasi, fiziologik holati va ularning patologiyalari bo‘yicha chuqur ilmiy tahlil yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada periodont to‘qimalarining har bir elementi alohida o‘rganilib, ularning anatomo-funksional tuzilishi, bir-biri bilan bog‘liqligi, kasalliklar rivojlanishidagi roli hamda sog‘lom holatinining saqlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlar tahlil qilinadi.



Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Adabiyotlarni tahlil qilish metodi – periodont tizimi bo'yicha ilgari amalga oshirilgan ilmiy maqolalar, darsliklar, tadqiqot hisobotlari tahlil qilindi.
- Tuzilmaviy-tahliliy metod – har bir periodont to'qimaning morfologik va funksional xususiyatlari alohida o'rghanildi.
- Taqqoslash metodi – sog'lom va patologik holatdagi periodont to'qimalari solishtirildi.
- Funktsional tahlil – har bir to'qimaning biologik vazifalari va ularning o'zaro aloqasi aniqlashtirildi.
- Tizimli yondashuv – periodontium umumiyligi tizim sifatida ko'rib chiqildi va uning organizmdagi o'rni baholandi.



Asosiy qism:

Periodontium quyidagi to‘qimalardan iborat:

Milk (gingiva)

Periodont ligamenti

Tish sementi

Alveolyar suyak

Bu to‘qimalar o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, ularning har biri tishning joyida mustahkam ushlanishini, mikroblarga qarshi himoyani va og‘iz bo‘shlig‘idagi normal holatni ta’minlaydi. Milk – og‘iz bo‘shlig‘ida tishni o‘rab turgan yumshoq to‘qima bo‘lib, epiteliy va biriktiruvchi to‘qimalardan tashkil topgan. U tish bilan o‘zaro mustahkam bog‘langan va tish atrofidagi mikroorganizmlarning kirib kelishiga to‘sinqinlik qiladi. Milkning normal holati pushti rangda, zich va og‘riqsiz bo‘ladi. Milkning yallig‘lanishi (gingivit) – periodont kasalliklarining dastlabki bosqichidir. Periodont ligamenti – tish ildiz sementini alveolyar suyak bilan bog‘lab turuvchi kollagen tolalar to‘plamidir. Bu ligament tishga keluvchi chaynash bosimini so‘rib olish, mikrosirkulyatsiya, himoya va sezgi vazifalarini bajaradi. Ushbu tolalar tishni suyak ichida elastik tarzda ushlab turib, zarbni yumshatadi. Tish ildizining tashqi qismini qoplaydigan sement qatlam asosan kollagen va gidroksiapatitlardan tashkil topgan. Bu qatlam periodont ligamentining tishga mahkamlanishini ta’minlaydi. Cement nafaqat mexanik, balki biologik faoliyatga ham ega bo‘lib, uni yo‘qotish ligament faoliyatining buzilishiga olib keladi. Bu suyak tish ildizini o‘z ichiga olgan jag‘ suyak tizimining bir qismidir. U tishni mahkamlab turadi va ligamentlar bilan bog‘langan. Sog‘lom suyak zich, yaxshi qon ta’minoti va tiklanish qobiliyatiga ega. Periodontit kasalligi natijasida alveolyar suyak yemiriladi va tish silkinishiga sabab bo‘ladi.



Periodont tizimining asosiy funksiyalari quyidagilar:

Mexanik funksiya: tishni joyida ushlab turish, chaynash bosimini taqsimlash.

Himoya funksiyasi: mikroorganizmlarning tish ildizi va suyakka kirishiga to'sqinlik qilish.

Sezgi funksiyasi: bosim, og'riq, harorat o'zgarishlariga javob berish.

Trofik (ta'minlovchi) funksiya: qon tomirlari orqali to'qimalarni oziqlantirish.

Tiklanish funksiyasi: to'qima shikastlanganda tezda regeneratsiya qilish.

Periodont kasalliklari asosan bakterial infektsiyalar, noto'g'ri gigiyena, genetik moyillik va turmush tarziga bog'liq. Eng keng tarqalganlari:

Gingivit – milkning yallig'lanishi, qizarish, shish va qonash.

Periodontit – ligament va suyakning yallig'lanishi, tish silkinishi, suyak yemirilishi.

Periodontoz – surunkali distrofik jarayon, odatda og'riqsiz kechadi, lekin suyak yo'qolishi bilan kechadi.



Tahlil va natijalar

Yuqoridagi tahlillar asosida periodont to‘qimalari organizmda alohida ahamiyatga ega kompleks tizim ekanligi aniqlandi. Har bir elementning o‘ziga xos tuzilishi va vazifasi borligi, ularning birqalikdagi ishlashi tish salomatligini saqlashda muhim ekani ko‘rsatildi. Ayniqsa, periodont ligamenti va alveolyar suyak o‘rtasidagi uzviylik, mikrotsirkulyatsiya, bosimni so‘rib olish va zarbalarga bardoshlik mexanizmlari chuqur ilmiy asosga ega. Bundan tashqari, periodont kasalliklarining dastlabki belgilari oddiy gigiyenik choralar bilan oldini olish mumkinligi, lekin e’tiborsizlik ularni murakkab jarayonlarga aylantirishi aniqlangan.

Xulosa: Periodont to‘qimalari – og‘iz bo‘shlig‘ining mustahkam, uzviy va himoyaviy tizimi bo‘lib, ularning har biri tish salomatligini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu to‘qimalarning anatomik va funksional holatini chuqur o‘rganish, kasalliklarning oldini olish va samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Sog‘lom periodontium – bu nafaqat tish salomatligi, balki umumiyligida organizm holatining yaxshi bo‘lishi uchun ham zaruriy shartdir. Shuningdek, muntazam gigiyena, profilaktik parvarish va doimiy stomatologik nazorat periodont to‘qimalarining sog‘lom saqlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Newman M.G., Takei H.H., Klokkevold P.R., Carranza F.A. (2019). Carranza’s Clinical Periodontology. Elsevier.
2. Lindhe J., Lang N.P. (2015). Clinical Periodontology and Implant Dentistry. Wiley-Blackwell.
3. Harrel S.K., Wilson T.G. (2020). Soft Tissue Surgery for the Periodontist. Quintessence Publishing.
4. Glick M. (2021). Burkett’s Oral Medicine. Springer.
5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. (2023). Stomatologiya bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent.